

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYA

### RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

**Kobulova Maktubaxon Urmonjonovna**

Toshkent viloyati Ohangaron tumani 19-sonli DMTT direktori

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotida ta'lism-tarbiyani rivojlantirishning pedagogik usullari, metodlari va innovatsion yo'llari haqida taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek ta'lism-tarbiyani rivojlantirish strategiyasining istiqbollari haqida ham ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lism-tarbiya, «Ilk Qadam» davlat o'quv dasturi, pedagogik faoliyat, strategik rivojlanish.

## EDUCATIONAL DEVELOPMENT STRATEGY IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

#### **Abstract**

In this article, suggestions and recommendations are given about pedagogical methods, methods and innovative ways of developing education in a preschool educational organization. Scientific-theoretical analyzes of the prospects of the education development strategy are also presented.

**Key words:** education, "Ilk Kadam" state curriculum, pedagogical activity, strategic development.

Maktabgacha ta'lism tashkilotida ta'lism-tarbiya, ayniqsa, mashg'ulotlar asosan turli o'yinlar tarzida olib boriladi. Shu sababli direktor tomonidan o'yin faoliyatini kuzatish va tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xil o'yinning maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishda alohida o'rinn egallashi, o'yin turlarining xilma-xilligi va ularning tarbiyalanuvchilarda ijobiy fazilatlarni qaror toptirish va rivojlanti-rish xususiyatiga ega ekani bilan bog'liq. Direktordan barcha o'yinlarga xos xususiyatlarni yaxshi bilish, o'yin jarayonini chuqur tahlil qilish va tarbiyachilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni taqozo etadi. Ta'kidlanganidek bolalar o'yinlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular bolaning maktabgacha tashkilotda bo'lgan butun davri mobaynida mazmuni, uyushtirilishi, tarbiyalanuvchi faolligi va imkoniyatlarini namoyon qilish xarakteri, bolalarga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra o'zgarib, takomillashib boradi.

Direktor o'yin turlarini tanlashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Xususan, direktor tarbiyachi tomonidan olib borilayotgan mashg'ulotlarda bolaning tili, dunyoqarashi, xislat va fazilatlarini

shakllantirishga, ijodiy imkoniyatlarini, masalan, musiqa yoki rasm chizishga qiziqishini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlardan qay darajada foydalanayotgani, ularning ta’lim-tarbiya maqsad-vazifalariga qay darajada mosligi tahlil etib borilishi va zarur hollarda, o‘z bilimi va tajribasiga tayanib, tarbiyachiga tegishli ko‘rsatma hamda maslahatlar berishi lozim. U turli yoshdagi guruh o‘yinlar tizimini «Ilk Qadam» davlat dasturi asosida ishlab chiqishi va o‘yin jarayonini kuzatish jadvalini tuzishi zarur. Direktor barcha guruhlarda o‘yinlar asosidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur shart-sharoit yaratilgani (o‘yinlar uchun yetarli vaqt ajratilgani, ularni to‘laqonli va qiziqarli o‘tkazish uchun joyning, o‘yinchoq, qo‘rgazmali vositalar va qo‘llanmalarning mavjudligi hamda xonalarda to‘g‘ri joylashtirilgani va hokazo)ga alohida ahamiyat berishi darkor.

Shunday qilib, direktoring bu boradagi rahbarlik faoliyati tarbiyalanuvchilarning jismoniy, intellektual va ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladigan, ularning emosional-ruhiy holati barqarorligini ta’minlaydigan rivojlantiradigan metod va usullardan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, jumladan, zarur hollarda o‘yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish orqali bolaning nutqini rivojlantirish, jismoniy va aqliy faolligini oshirish, ularda ma’naviy-axloqiy xislatlarni tarbiyalashga yunaltirilmog‘i kerak.

Guruhlarda o‘yinlarning to‘laqonli va qiziqarli o‘tkazilishiga yordam beradigan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) tarbiyachining o‘yinni to‘laqonli va qiziqarli o‘tkazish hamda uni oqilona boshqarish qobiliyatiga ega ekani;
- b) o‘yinni to‘laqonli va qiziqarli tashkil etish uchun tegishli muhit va shart-sharoit yaratilgani;
- v) kun tartibi rejasiga kiritilgan mashg‘ulotlarda o‘yin uchun yetarli vaqt ajratilgani.

Ma’lumki, bolalarning o‘yin jarayonidagi xatti-harakatlari ularning katta yoshli kishilarga taqlid qilishga intilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya va mashg‘ulotlar jarayonida bu jihatni e’tiborga olish barobarida, o‘yin orqali jismoniy, aqliy, ma’naviy jiатдан rivojlantirishga, ularning qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini shakllantirishga intilish talab etiladi.

Direktor faoliyatida, yuqorida tilga olingan omillardan tashqari, qiyosiy tekshiruv ham muhim o‘rin egallaydi. Uning ahamiyati tarbiyachining pedagogik faoliyatini boshqa pedagogning ish tajribasi bilan taqqoslash (masalan, yonma-yon guruhlар tarbiyachilar ish faoliyatini solishtirish), tahlil qilish va baholashda namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tekshiruv dasturning ayrim bo‘limlarini bajarilishini o‘rganishda turli tarbiyachilarning bilimi, ko‘nikma va malakalari hamda umuman ish samaradorligini tahlil qilishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Qiyosiy tahlil natijalari Kuzatuv kengashida muhokama etilishi mumkin. Qiyosiy tekshiruv guruhlarga kirish va tarbiyachilar ishlarini bevosita kuzatish, rejalar, bolalar ishlari va boshqa hujjatlarni tahlil qilish shaklida o‘tkazilishi mumkin. Direktor kundalik pedagogik jarayonlarni, o‘qish va mashg‘ulotlarni, tarbiyalanuvchilar faoliyati, ular olayotgan bilim va ko‘nikmalar sifatini tarbiyachilar bilan

birga tahlil qiladi, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish yo’llarini izlaydi. Qiyosiy tekshiruv ilg‘or ish tajribasining ommalashuviga, ta’lim-tarbiyaviy jarayoni va barcha guruh tarbiyachilarining umumpedagogik salohiyati darajasini oshirishga yordam beradi. Nazoratning har qanday turi qo‘llanishidan qat’iy nazar, unga direktor jiddiy, puxta tayyorgarlik ko‘rgan holdagini kutilgan samara berishi mumkin.

Eng avvalo, tekshiruv maqsadi aniq belgilanishi lozim (masalan, kichik guruhlarda bolalarning kun davomidagi xilma-xil mashg‘ulotlari uchun tegishli shart-sharoit yaratilganini; katta guruhlarda tarbiyalanuvchilarning o‘yin va mehnat jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini kuzatish, xususan, o‘yin paytida yoki mehnat jarayonidagi hamjihatligi.

O‘rta guruhlarda esa direktor tarbiyalanuvchilar nutqini o‘stirishga doir dasturning qay darajada o‘zlashtirilayotgani, bolalarning nutq faolligi va ko‘nikmalarining shakllanish darajasini tekshiradi. Qiyosiy tekshiruv maqsadini aniq belgilab olgach, direktor tarbiyachining ta’lim-tarbiya ish rejasini «Ilk Qadam» Davlat o‘quv dasturi talablari bilan solishtiradi. Oldingi tekshiruv natijalari bilan tanishadi, bolalarning ishlarini o‘rganadi, tarbiyachi va kichkintoylar bilan suhbatlashadi. Shuningdek yangi metodik adabiyotlar va ishlanmalar, ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirish xulosalari, ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishib, tekshirish jarayonida aniqlamoqchi bo‘lgan savollarni nazarda tutib, tekshiruvning qisqa xamda aniq rejasini ishlab chiqishi lozim.

2022-2026 yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya sifatini takomillashtirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori quyidagi strategik ishlarni amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi, umumiyligi ishlab chiqarish yig‘ilishi, umumiyligi ota-onlar yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimiga oid qonun va farmoishlari. Vazirlar Mahkamasining qarorlari vazirlik va tegishli idoralarning huquqiy-me’yoriy hujjalarni mazmun mohiyatini keng jamoatchilikga etkazib berish.
2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida har bir bolaga shaxs sifatida individual yondashib, faoliyat markazlarida bolani qiziqishlarini rivojlantirib, ijodini namoyon etishga shart-sharoit yaratish.
3. Har bir bolada erta yoshdan kitobga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish maqsadida yilda ikki marotaba “Kitob bizning do‘stimiz” mavzusida ochiq eshiklar kunini o‘tkazish.
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etilgan Kuzatuv kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish va ota-onalar bilan muloqatni doimiy yo‘lga qo‘yish.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusi, 5 ta muhim yo‘nalish bo‘yicha bolalarning qobiliyatlarini aniqlash, tuman va shahar miqiyosida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar ishtiropini ta’minlash.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilot pedagog xodimlarini ta'lim-tarbiyaviy faoliyat jarayonlari, ko'rik tanlov, ochiq eshiklar kuni va bayram ertaliklari ommaviy axborot vositalarida muntazam chiqishlarini ta'minlab borish.
  7. Tuman va shaharda o'tkaziladigan seminarlarda ishtirok etish va pedagog xodimlarni ishtirokini ta'minlash.
  8. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining rus tili va ingliz tilini mukammal o'rghanishga shart-sharoit yaratish.
  9. Muso al Xorazmiy nomidagi innovasion maktab haqida maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruh tarbiyalanuvchilarni qiziqtirib borish.
  10. Prezident maktabi haqida maktabgacha yoshdagi bolalarga tushunchalar berish.
- Xulosa qilganda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni doimiy ravishda rivojlantirib borib, tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining strategik vazifasidir.

### Foydalanimanadabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydag'i 391-sod "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. Lapigin, D.Yu. Konturi regionalnogo obrazovatel'nogo klastera. / D.Yu. Lapigin, G.A. Koreskiy. // Elektronniy jurnal "Ekonomika regiona". – 2007. – №18. – [Elektronniy resurs]. – URL: <http://journal.vlsu.ru>. (data obrasheniya 22.01.2009 g.).